



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 14-mart, shanba,
23 (24.203)-son

O'zbek xalq
maqoli

Har gul
o'z
butasida
aziz

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

Zarafshon



Yangi tashkil etilayotgan bog'da

startap loyihalar ofisi bo'ladi



Viloyat hokimi A.Boboyev zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida yangi muhandislik dasturlari va startap loyihalar yaratgan, ishbilarmon yoshlar bilan uchrashdi. Yangilikka intiluvchan va kashfiyotchi o'quvchi, talabalar, IT texnologiyalar bo'yicha yosh mutaxassislar, tadbirkor yigit-qizlar sog'liqni saqlash sohasida tibbiy xizmatlarni osonroq olishga qaratilgan loyiha, suvdan samarali foydalanish uchun "aqlli irrigatsiya", turizmni rivojlantirish va atrof-muhit musaffoligini ta'minlashga xizmat qiluvchi eko-minora, sun'iy intellekt yordamida milliy kontentlar yaratishga doir dastur va yana o'ndan ortiq startaplari haqida viloyat hokimiga ma'lumot berdi. Yoshlar shunchaki loyiha ko'rsatish emas, balki ularning viloyat va mamlakat uchun foydali ekanini aniq hisob-kitob, amaliy natijalar bilan ifodalashga harakat qildi.

Viloyat rahbari har bir loyiha

haqida batafsil ma'lumot olib, ularni amalga oshirish bo'yicha mas'ullarga tegishli topshiriqlar berdi, bu borada tadbirkorlar bilan birga ishlashni taklif qildi.

– Biror yangilik qilish, yangi loyiha o'ylab topishning o'zi bo'lmaydi, – dedi viloyat hokimi A.Boboyev. – Shunday loyiha yoki dastur yaratilgandan keyin esa buning afzalligini isbotlab berish va amalga oshirish undan ham murakkab bo'lishi mumkin. Biz bu borada sizga yordam berishga, qo'llab-quvvatlashga doim tayyormiz. Samarqand shahridagi sobiq harbiy gospital o'rnida yangi istirohat bog'i tashkil etyapmiz. Ushbu hududdagi mavjud binolardan biridan startap loyihalar ofisi sifatida foydalanishni rejalashtirib turibmiz. Yaqin orada bu bog'ni foydalanishga topshirganimizdan keyin siz kabi yuzlab yoshlar ushbu markazga borib, loyihalarini yanada boyitish, amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

Uchrashuv davomida yoshlar tomonidan taqdim etilgan IT ishlarni va ta'lim tashabbuslari viloyat yetakchisi va boshqa rahbarlarda katta qiziqish uyg'otdi. Jumladan, xizmatlarni raqamlashtirish va onlayn ta'limni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni hayotga tatbiq etish bo'yicha vazifalar belgilab olindi.

Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari bo'yicha hukumat komissiyasi viloyatimizda amalga oshirilayotgan bir qator investitsiya loyihalar bilan tanishdi hamda tadbirkorlar ishtirokida ochiq muloqot o'tkazdi.



HUKUMAT KOMISSIYASI tadbirkorlar huzurida

Bosh vazir o'rinbosari Jamshid Xo'jayev, Bosh prokuror o'rinbosari Dilмурod Qosimov, Biznes-ombudsman rahbari o'rinbosari Jamshid O'runov, tegishli vazirlik va idoralar mas'ullari ishtirok etgan ochiq muloqotda tadbirkorlar tomonidan sohada uchrayotgan muammolar, takliflar bildirildi.

Dastlab respublikamizning 30 dan ortiq davlatdagi elchi, konsul va vakillari ishtirokida onlayn muloqot o'tkazildi. Masalan, Xitoyga uzum danagi eksport qiluvchi tadbirkor mahsulot urug'lar tarkibiga kirib qolgan uchun hujjat rasmiylashtirishdagi muammoni aytadi, boshqa tadbirkor 2021-yilda Qozog'istonga qilingan 480 million so'mlik mahsulotining qolgan pulini olishda yordam so'radi. Viloyatimizda xususiyl tibbiy ta'lim yo'nalishida faoliyat yurituvchi ishbilarmon Eron davlatidan ilm olish istagidagilar ko'pligi tufayli hujjat rasmiylashtirish, tabletka tuz ishlab chiqaruvchi tadbirkor Qozog'iston va Qirg'iz respublikalarida savdo tarmoqlarini ochishda yordam so'rab murojaat qildi. Har bir murojaat nazoratga olinib, elchilarga ular bilan ishlash va masalalarga yechim topishda muddatlar belgilandi.

Uchrashuvda ruxsatnoma olish, imtiyozlardan foydalanish, mutaxassis jalb qilish, kredit ajratish va kredit qaytarish muddatini uzaytirish, yer maydoni ajratish, toifasini o'zgartirish va boshqa masalalarda murojaatlar bo'ldi.

Bir hafta oldin Prezidentimizning farmatsevtika sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar bilan uchrashuvda qatnashdirm va Bulung'ur tumanida qu-

rilyotgan zavodimizni 2027 yilda ishga tushirishga va'da berdim, – deydi Yangi Osiyo xalqaro biofarmatsevtika korxonasi direktori o'rinbosari Otabek Choriyev. – Bugun ham Bosh vazir o'rinbosari boshchiligidagi hukumat komissiyasi kelib tadbirkorlarning faoliyatidagi muammolariga yechim topishga harakat qilishyapti. Bizga hozir Xitoy davlatidan 600 ta yuk mashinasida tibbiy jihozlar va qurilish materiallari kirib kelmoqda. Yuklarimizni bojxona-da tezroq rasmiylashtirishga qurilishimiz to'xtamaydi va bergan va'damizni bajaramiz. O'rta Osiyoda yagona bo'lgan qon plazmasidan albumin, immunoglobulin kabi dorilar ishlab chiqaramiz. Bu juda qimmat dorilar toifasiga kiradi va qo'shni davlatlarning hech birida bunday korxona yo'q, bu kabi dorilar xorijdan import qilinadi. Bulung'urda shunday mahsulot ishlab chiqaradigan korxona tashkil qilamiz va asosan ichki bozorga, keyingi navbatda xorijga mahsulot sotishni rejalashtirganmiz. Bugungi uchrashuvda aytgan ikkita masalamiz bo'yicha Xitoydan kelayotgan mutaxassislarni vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish va jihozlarni bojxona rasmiylashtiruvdan tezlashtirilgan tartibda o'tkazish va zavodgacha yetkazib berish topshirig'i berildi, buning uchun minnatdorchilik bildiraman.

Uchrashuvda tadbirkorlarning muammolariga yechim topish bo'yicha mas'ullarga aniq muddat berildi, hujjatlarni rasmiylashtirish borasidagi masalalarda qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun takliflar ishlab chiqish topshirildi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

Navro'zning asosiy tantanalari qayerlarda bo'ladi?

Bu yilgi Navro'z umumxalq bayrami tadbirlari “Navro'zni ulug'lash – insonni ulug'lashdir!” shiori ostida o'tkaziladi.

Davlatimiz rahbarining shu yil 6-mart kuni qabul qilingan qaroriga ko'ra, yurtimizda, jumladan, viloyatimizning har bir shahar va tumanida Navro'z xalq sayillari tarzida keng nishonlanadi.

Viloyatda Navro'z bayramini o'tkazish cho'ra-tadbirlari rejasiga muvofiq, bayramda yangi sahna ko'rinishlari, shoir va yozuvchilarning ijod namunalari, san'atkorlarning Vatani, tabiat, yoshlik va go'zallik haqidagi yangi qo'shiqlari, folklor jamoalarning chiqishlari va askiya san'ati ijodkorlarining zamonaviy ijod mahsullari namoyish etiladi. Shuningdek, viloyatdagi mahallalar, ta'lim muassasalarining ko'rgazmalari, tadbirkor va hunarmandlar tomonidan yarmarkalar tashkil etilib, “Kabob festivali”, “Sumalak sayli”, “Osh chempionati”, “Samarqand nonlari” yarmarkasi, xalq o'yinlari hamda sport musobaqalari o'tkaziladi.

Asosiy bayram tantanalari Samarqand shahridagi Alisher Navoiy nomidagi istirohat bog'i, Kamol Otaturk, Firdavsiy, Alisher Navoiy ko'chalari, Qorasuv massividagi “Yangi O'zbekiston” bog'ida, Kimyogarlar qo'rg'oni va shu hududdagi “Nurafshon” san'at saroyi, So'lim va Farhod shaharchalarida o'tkaziladi.

Shodiyonalar shahardagi “Mo'jiza” amfiteatrda konsert dasturi bilan davom etadi. Bayram tadbirlari davomida “Ibratli oila”, “Obod mahalla”, “Namunali maktab”, “Mohir laparchi” yo'nalishlari bo'yicha ko'rik-tanlovlar, adabiy-badiiy uchrashuvlar, kitobxonlik bayramlari tashkil etiladi. Shu bilan birga,

ijtimoiy daftarlarga kiritilgan oilalar, yakka-yolg'izlar, o'zgarlar parvarishiga muhtoj fuqarolar, keksalar va nogironlar holidan xabar olinib, xayriyalar qilinadi.

Hududlarda ham bayramga tayyorgarlik ishlari qizg'in davom etmoqda. Ayni jarayon bilan tanishish maqsadida **Payariq tumanida** bo'ldi.

Tuman hokimining o'rinbosari Elyor Mamadiyorovning ta'kidlashicha,

keyingi yillarda Navro'z bayrami asosan Do'stlik mahallasida dala maydonida o'tkazilgan bo'lsa, bu yil tuman markazidagi “Yangi O'zbekiston” maydonida keng nishonlanadi. Ayyom munosabati bilan korxona va tashkilotlar, mahallalar, ta'lim muassasalari, tadbirkorlar hamda hunarmandlar ishtirokida yarmarkalar tashkil etiladi. Shuningdek, milliy taomlar festivali, xalq o'yinlari va sport musobaqalari o'tkazilishi rejalashtirilgan. Bayram arafasida bir qator ijtimoiy soha obyektlari, foydalanishga topshiriladi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar holidan xabar olinib, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida daraxt ekish aksiyalari va umumxalq hasharlari tashkil etiladi.

Tumanda o'nta madaniyat muassasasi mavjud bo'lib, bayram tadbirlarini yuqori saviyada o'tkazish maqsadida madaniyat markazlari, teatr va folklor jamoalari tomonidan milliy an'ana va qadriyatlarimizni targ'ib qiluvchi sahna ko'rinishlari, xalq og'zaki ijodi namunalari va konsert dasturlari tayyorlanmoqda.

– 1986 – yilda tashkil etilgan jamoamizda turli



Qaror va ijro

yoshdagi 16 nafar ijodkor milliy merosini targ'ib etib kelmoqda, – deydi “Chinor” folklor-etnografik jamoasi rahbari Nurali Qilichev. –

Jamoa yil davomida o'tkazilayotgan madaniy tadbirlar, bayram va festivallarda faol ishtirok etib kelmoqda. Repertuarimizda yigirmaga yaqin qo'shiq bo'lib, Navro'z bayramida “Nayzangul”, “Yil boshi”, “Navro'z keldi”, “Tushov kesdi”, “Xapalasiga”, “Chelakda bozor”, “Poyarig'im”, “Qora suv”, “O'yna-o'yna” kabi o'nga yaqin xalq og'zaki ijodi namunalari tayyorlayapmiz. Ayniqsa, Navro'z ayyomida xalqimizning qadimiy an'analari, mehr-oqibat va birdamlik g'oyalarini targ'ib etishga alohida e'tibor qaratamiz.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.



Samarqand shahrida yuk avtomobillari ishlab chiqarish 7 mingtaga yetkaziladi



Bulung'ur tumanini 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar tasdiqlandi



Pastdarg'omlik o'quvchi tibbiyot yo'nalishi uchun eng yuqori ball beriladigan 5 ta milliy sertifikatni qo'lga kiritdi



Sifatsiz neft mahsuloti sotayotgan “zapravka” jarimaga tortildi

Qozog'istonda nega Konstitutsiyani

yangilash
ehtiyoji
tug'ildi?

Ertaga, 15-mart kuni Qozog'istonda muhim ijtimoiy-siyosiy voqea - yangi Konstitutsiya loyihasini qabul qilish bo'yicha referendum o'tkaziladi. Asosiy qonunning yangi tahriri jamiyat taraqqiyotining asosiy qadriyatlarini belgilaydi va davlatchilikning fundamental tamoyillarini mustahkamlaydi. Qozog'iston Respublikasining Samarqand shahridagi Bosh konsuli Talgat Sharipov bunday keng ko'lamli konstitutsiyaviy o'zgarishlarga qanday zarurat borligi va taklif etilayotgan o'zgarishlar mamlakatning keyingi rivojiga qanday ta'sir qilishi haqida gapirdi.

- Siyosiy modernizatsiya va Konstitutsiyani isloh qilish qanday boshlandi?

- Konstitutsiyaviy islohotning boshlang'ich nuqtasi davlat rahbari Qasim-Jomart Toqayevning Qozog'istonda bir palatali parlament tuzish tashabbusi bo'ldi. Prezident bu g'oyani 2025-yil 8-sentabr kuni mamlakat xalqiga yo'llagan Murojaatida ilgari surgandi. Bu siyosiy tizimni kompleks ravishda qayta ishga tushirish Qozog'istonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatish maqsadida taklif etildi. U mamlakatda «Kuchli Prezident — ta'sirchan Parlament — hisobdor Hukumat» tamoyili asosida bir palatali parlament tuzishni nazarda tutgandi.

2025-yil oktabr oyida parlament islohoti bo'yicha ishchi guruh tuzildi. Uning tarkibiga huquqshunolar, ekspertlar, siyosiy partiyalar fraksiyalari va jamoat tashkilotlari vakillari kiritildi. Dastlab Asosiy qonunning taxminan 40 ta moddasiga o'zgartirish kiritish rejalashtirilgandi. Biroq ish jarayonida o'zgarishlar soni ancha ko'p bo'lishi va siyosiy hamda ijtimoiy hayotning boshqa jihatlariga ham ta'sir qilishi ayonlashdi. Shuning uchun 2026-yil 21-yanvarda Konstitutsiya komissiyasi tuzildi. Komissiya a'zolari Konstitutsiyaning barcha bo'limlari va 77 ta moddasini jamladi. Bu esa Konstitutsiya matnining 84 foizini tashkil qiladi. Shu tariqa komissiya a'zolari yangi Konstitutsiya tayyorlash masalasini qo'ydi va qo'llab-quvvatladi.

Umuman, mamlakatning yangi Asosiy qonuni loyihasi fuqarolar, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va ekspertlardan kelgan takliflarni har tomonlama tahlil qilish, ochiq muhokamalar va yangi me'yorlarni batafsil ishlab chiqish natijasida tayyorlandi.

- Nima uchun aynan hozir Qozog'iston yangi Konstitutsiya qabul qilish masalasini muhokama qilmoqda? Mamlakat oldida qanday chaqiriqlar turibdi?

- Yangi Konstitutsiya qabul qilish zarurati bir nechta omillar bilan bog'liq. So'nggi yillarda jamiyat ijtimoiy, texnologik va siyosiy jihatdan sezilarli darajada o'zgaradi. Shuning uchun gap faqat ayrim me'yorlarni tuzatish haqida emas, balki davlat Asosiy qonunini yangi zamon realliklariga moslashtirish haqida ketmoqda.

Bundan tashqari, tashqi muhit ham muhim rol o'ynaydi. Bugun murakkab geosiyosiy vaziyatni kuzataymiz: davlatlar o'rtasidagi xalqaro raqobat kuchaymoqda, global iqtisodiyot o'zgarimoqda, noaniqlik darajasi ortib boryapti. Bunday sharoitda davlat institutlarining barqarorligini mustahkamlash va siyosiy tizim barqarorligini ta'minlash ayniqsa, muhim.

Konstitutsiyani yangilash mamlakat rivoji uchun zamonaviy huquqiy asos yaratishga qaratilgan. U uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun sharoit yaratishi, davlat institutlarini mustahkamlashi va xalqaro hamkorlar ishonchini oshirishi kerak. Asosiy qonunda belgilangan qoidalar qanchalik aniq va shaffof bo'lsa, ishonch ham shunchalik yuqori bo'ladi. Bu esa investitsiya muhitini yaxshilaydi.

- Yangi Konstitutsiya loyihasida qanday davlat modeli nazarda tutilgan?

- Avvalo, bu inson, uning huquqlari va rivojlanish imkoniyatlari markazda turgan zamonaviy davlat modeliga o'tishni anglatadi. Yangi Konstitutsiya loyihasi insonparvarlik tamoyilini aks ettiradi, fuqarolar huquqlari kafolatlarini kuchaytiradi va davlatning jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshiradi.

Shu bilan birga, asosiy qoidalar davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va huquqiy tizimni yangi realliklarga, jumladan, iqtisodiyot va jamiyat hayotining raqamli transformatsiyasiga moslashtirishga qaratilgan.

Yangi Konstitutsiya loyihasi faqat ayrim me'yorlarni yangilash emas, balki kompleks modernizatsiyani nazarda tutadi. U davlat institutsional shakllanishining boshlang'ich bosqichidan davlat rivoji bosqichiga o'tishni yakunlashga qaratilgan. Hujjat mustaqillikning deklarativ tasdiqidan vakolatlar, protseduralar va vakolat chegaralari aniq belgilangan institutsional suverenitetga o'tishni namoyish etadi. Bu yondashuv konsolidatsiya bosqichidan yuqori sifatli institutsional rivojlantirish bosqichiga o'tgan davlatlar konstitutsiyalariga xosdir.

Shuningdek, yangi Konstitutsiyada hukumatlar bo'linishi va ular o'rtasidagi muvozanat aniq belgilab qo'yilgan. Asosiy qonun prezident respublikasi modelini saqlab qolgan holda, Qurultoyning (yangi, bir palatali parlament) rolini kuchaytiradi. Masalan, Konstitutsiyaviy sud sudyalari, Markaziy saylov komissiyasi va Oliy auditorlik palatasi a'zolari Prezident tomonidan Qurultoy roziligi bilan tayinlanadi.

Bundan tashqari, institutsional to'siqlarning oldini olish va davlat tizimining uzluksiz ishlashini ta'minlashga qaratilgan tartib-qoidalar joriy etilmoqda.

Yangi Konstitutsiyada Konstitutsiyaviy sud maqomini kuchaytirish, inson huquq va erkinliklarining zamonaviy tizimini joriy etish, ayrim yuqori lavozimlarga qayta tayinlanishga cheklovlar o'rnatish kabi normalar ham nazarda tutilgan.

Vorislik mexanizmi sifatida vitse-prezident instituti joriy etiladi. Prezident vakolatlari muddatidan oldin tugaganda vakolatlarni o'tkazish tartibi aniq belgilangan. Vitse-prezident uchun siyosiy betaraflik talabi ham joriy etilgan.

- Yangi Konstitutsiyada qanday qadriyatlar va rivojlanish yo'nalishlari belgilangan?

- Yangi Konstitutsiyada hujjatning asosiy qadriyatlarini bayon qilingan. Unda qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklariga hurmat, jamoat roziligi va imkoniyatlar tengligi kabi prinsipial aks etgan. Bu qoidalar mamlakat rivojining strategik yo'nalishini belgilab, adolatli va zamonaviy davlat qurish uchun g'oyaviy asos yaratadi.

- Yangi Konstitutsiya loyihasi fuqarolar huquqlari uchun qanday yangi kafolatlarini nazarda tutadi?

- Muhim yangiliklardan biri - raqamli muhitda fuqarolar huquqlarini himoya qilish. Ilk bor konstitutsiyaviy darajada shaxsiy ma'lumotlar, yozishmalar va bank ma'lumotlarini himoya qilish taklif etilmoqda.

Xususan, 21-modda insonning internet va virtual muhitdagi xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Bugun hayotimizning katta qismi raqamli makonda kechayotgani uchun bu muhim qadam hisoblanadi.

Shuningdek, ilk bor advokatura maqomi Konstitutsiya darajasida mustahkamlanmoqda va sud jarayonida himoya hamda ayblovlarning tengligi tamoyili kuchaytirilmoqda.

- Nima uchun yangi Konstitutsiyani referendumga qo'yish muhim?

- Respublika referendumini o'tkazish prinsipial ahamiyatga ega. Chunki yangi Konstitutsiyani qabul qilish haqidagi yakuniy qarorni mamlakat fuqarolarining o'zi qabul qiladi. Bu xalq irodasini bevosita ifoda etuvchi asosiy mexanizm.

Bunday format konstitutsiyaviy o'zgarishlarning legitimligini oshiradi va Asosiy qonunning yangi tahriri jamiyatning bevosita ishtirokida qabul qilinayotganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, loyihada kelgusida Konstitutsiyaga kiritiladigan barcha o'zgarishlar faqat umumxalq referendumini orqali qabul qilinishi haqidagi yangi qoida ham kiritilgan.

- Yangi Konstitutsiyani qabul qilish Qozog'iston kelajagi uchun qanday ahamiyatga ega?

- Menimcha, yangi Konstitutsiyani qabul qilish Qozog'istonning keyingi rivojida muhim bosqich bo'ladi. U zamonaviy chaqiriqlar va jamiyatning ichki ehtiyojlarini hisobga olgan holda davlatning yangilangan huquqiy asosini shakllantiradi.

Hujjatda barqaror rivojlanish, davlat institutlarini mustahkamlash va fuqarolar huquqlarini himoya qilish tamoyillari aks etgan. Yakunda adolatli, barqaror va jadal rivojlanayotgan Qozog'istonni barpo etish uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

Jomboy tumanidagi 38 mahallada qariyb 200 ming nafar aholi istiqomat qiladi va ularning 93,9 ming nafari mehnat resurslari hisoblanadi. Aholining 3172 nafari ishsiz va ishsizlik darajasi 4,1 foizni tashkil qiladi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yilning o'zida ishsiz fuqarolarning 2,1 mingdan ortig'i ish bilan ta'minlangan. Jumladan, 1,3 mingga yaqin xotin-qizlar, 800 nafar yoshlar doimiy ish o'rniga ega bo'lgan. Prezidentimizning 2025-yil 17-yanvardagi "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan 21405 ta yangi ish o'rni tashkil etilib, "yangi ish mehnat.uz" platformasiga kiritilgan. Yaratilgan yangi ish o'rinlari yangi tadbirkorlik, investitsiya, qurilish va qishloq xo'jalik yo'nalishlarida yangi tashkil etilgan subyektlar hisobidan shakllantirilgan. Yil davomida mingdan ortiq ishsiz fuqaro kasb-hunarga o'qitilgan bo'lsa, 2026-yilda yana 600 nafardan ortiq fuqaro talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitiladi.

KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDA

NIMALAR MUHIM?

– Yil boshidagi raqamlarga qaraydigan bo'lsak xorijga chiqib ketgan fuqarolarimiz 11,4 ming nafar edi va yil davomida ularning 9,9 mingdan ortig'i yurtimizga qaytarildi, - deydi tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i Shuhratjon Shodmonov. – Ularning aksariyati rasmiy va norasmiy sektorga ishga joylashtirildi, qiziqish bildirganlari tadbirkorlikda o'z ishini ochishdi, o'zini o'zi band qildi. Ularning har biriga kerakli yordam ko'rsatildi. Yil davomida tumanimizda qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohaslarida qiymati 60,1 milliard so'mlik 1560 ta mikroloyiha ishga tushirilib, 3,2 mingga yaqin ish o'rni yaratildi.

Kambag'al oilalar bilan manzilli ishlash asosida har bir oila bo'yicha alohida rejalar ishlab chiqildi, mahallalardagi obro'-e'tiborli 114 nafar faol nuroniyga 2 bosqichda 825 ta kambag'al oila biriktirildi. Kambag'al oilalar farzandlarining bilim olishi uchun o'quv qurollari, jihozlar va sport kiyimlariga ehtiyojlari o'rganilib, jami 618,7 million so'mlik o'quv jihozlari va sport kiyimlari olib berildi.

O'tgan yili kambag'al oila azolarining 5515 nafarining bandligi ta'minlanib, shundan 3067 nafari doimiy ishga joylashtirildi, 702 nafariga imtiyozli kredit, ssuda va subsidiya ajratildi, 166 nafari kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi, 1580 nafari tadbirkorlik yo'nalishida o'zini o'zi band qildi.

2025-yil yakuni bilan tumanda kambag'allik darajasi 6,4 foizni tashkil etdi. Yil yakuniga qadar kambag'allik darajasini 2,9 foizga tushirish rejalashtirilgan. Bunda birinchi navbatda kambag'al oilalarning dunyoqarashi, madaniyati, ma'naviyatini oshirish orqali ularga kasb-hunar



o'rgatib, o'qitib, tadbirkorlikka yo'naltirish, doimiy daromad olishlariga ko'maklashish orqali turmush sharoitini yaxshilash asosiy maqsad qilingan.

2025-yilda 2802 ta kambag'al oila (12377 nafar oila a'zosi) kambag'allikdan chiqarildi.

2026-yil 1-yanvar holatiga kambag'allik reestrida 1410 ta oila (kambag'allik darajasi 3 foiz) qolmoqda.

Tumanning Eski Jomboy mahalllasida yashovchi Qo'chqor Rasulov xonadonida 9 kishi istiqomat qiladi va o'g'li F.Rasulov bolalikdan 1 guruh nogironi hisoblanadi. Ushbu oila kambag'allikning qizil toifasiga kiritilgan. Shu bois Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan bu oilaga 5 kVtli quyosh panellari o'rnatib, xonadondagi eski eshik-romlar yangilandi. 28 million so'm kredit hisobiga 2 ta chorva oila a'zosi bilan 17 sotikli hovlisida istiqomat qiladi. Bu oilaga ham 5 kVtli quyosh panellari o'rnatilgach, oilaning elektr to'lovlari uchun xarajatlari ancha tejaldi.

Shu mahallada yashovchi Otabek Jabborov 8 nafar oila a'zosi bilan 17 sotikli hovlisida istiqomat qiladi. Bu oilaga ham 5 kVtli quyosh panellari o'rnatilgach, oilaning elektr to'lovlari uchun xarajatlari ancha tejaldi.

– Mahallamizdagi maktabda farrosh bo'lib ishlayman va oilamizdagi yolg'iz ishlovchiman, - deydi To'lg'anoy Astanaqulova. – Yil boshida quyosh panellari keltirib o'rnatib berishdi. Unga-cha har oyda elektr uchun 100 ming so'mgacha to'lov qilardik, hozir elektrga pul to'lamaymiz. Shu pul tejalishi ham ro'zg'orga katta yordam bo'lyapti, yana soliqdan ro'yxatdan o'tkazib, 5 yilgacha soliqlardan imtiyozlarga berilarkan. Bu biz kabi qiynalgan oilalar sharoitini tiklash uchun katta imkoniyat hisoblanadi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.



olishda ayblangan
sobiq IIB xodimiga

Sud hujjatiga ko'ra, S.S. avval Payariq tumani IIB huquqbuzarliklarning oldini olish bo'limi voryaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektori lavozimida ishlagan...

Jinoyat ishlari bo'yicha Samarqand viloyati sudining 2012-yil 23-avgustdagi hukmiga ko'ra, Jinoyat kodeksining 210-moddasi (pora olish) 3-qismining "b" bandi va 241-1-moddasining (jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirish) 1-qismi bilan o'n yarim yil muddatga ozodlikdan mahrum qilingan.

2024-yil 2-dekabrda Oliy sudning jinoyat ishlari bo'yicha

357 million so'm to'lanadi

sudlov hay'ati taftish instansiyasi yuqoridagi hukmni bekor qilib, sobiq IIB xodimi - S.S.ni aybsiz deb topgan.

Sodir etilgan jinoyatlarga daxli bo'lmaganligi sababli reabilitatsiya etilib, jinoyat ishining S.S.ga oid qismi tugatilgan.

Oqlangandan keyin S.S. yetkazilgan barcha mulkiy ziyonni undirib berish haqida ariza bilan murojaat qilgan.

Samarqand viloyati sudi arizada keltirilgan vajrlarni ish hujjatlari bilan birga tahlil qilib, arizani qisman qanoatlantirishni lozim topdi:

Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil ma'lumotnomasida S.S.ning 2012-

yil iyun oyidan 2024-yil 2-dekabrda qadar olishi lozim bo'lgan ish haqi miqdori 12 foiz soliq to'lovlari che- girilgan holda 357255403 so'mni tashkil etishi ko'rsatilgan.

Sud ushbu miqdorni viloyat hokimligi huzuridagi "Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarini kompensatsiya qilish bo'yicha hududiy maqsadli jamg'arma" hisobidan qoplashni belgiladi.

Ajrimda S.S. ga ma'naviy va boshqa moddiy zararlarini undirish yuzasidan tegishli hujjatlar ilova qilingan holda fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida sudga murojaat qilish huquqiga ega ekanligi tushuntirildi.

Y.GADOYEV.

Mamlakatimizda yoshlar masalasi tobora strategik ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan uchrashuvida ilgari surilgan 32 ta tashabbus – bu shunchaki navbatdagi dastur emas, balki Yangi O‘zbekiston taraqqiyot modelining muhim ustunidir.

Ushbu tashabbuslar moliyaviy, tashkiliy va institutsional jihatdan puxta o‘ylangan bo‘lib, yoshlarning ta‘lim olishi, kasb egallashi, tadbirkorlikni boshlashi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga keng yo‘l ochadi. Avvalo, har payshanba vazirlik, idora va hokimliklarda “Yoshlar kuni” o‘tkazilishi belgilanishi davlat boshqaruvida ochiqlik va muloqot madaniyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Endilikda yoshlar muammolari kabinetlarda emas, bevosita uchrashuv va ochiq muhokamalar orqali hal etiladi. Bu yoshlarning davlat siyosatidagi ishtirokini kuchaytiradi va ularni qaror qabul qilish jarayonida faolligini oshiradi.

Yig‘ilishda davlatimiz yetakchisi yoshlarning biznes qilishi va faol tadbirkor bo‘lishi uchun ulkan imkoniyatlar yaratilishi haqida aytib o‘tdi. Davlat rahbari bitiruvchi yoshlarning ishga joylashishi muammosi va ularning kasb egallashi haqida ham to‘xtalib o‘tdi. Ta‘lim va malaka masalasi ham alohida e‘tiborda ekanligi esa biz yoshlar uchun yana bitta katta motivatsiya bo‘ldi. “Mening birinchi kasbim” dasturi orqali oliygoh bitiruvchilariga stajirovka davrida oyiga 2 million so‘mgacha stipendiya to‘lanishi yosh mutaxassislarning mehnat bozoriga moslashuvini yengillashtiradi. “Yangi avlod tadbirkorlari” dasturi doirasida

Yoshlar siyosatida yangi bosqich:

imkoniyat, ishonch va mas’uliyat



Harvard va Stanford kabi nufuzli oliygothlar bilan hamkorlikda 40 ming yoshni biznesga o‘qitish rejalashtirilgan yoshlarimizning global bilim va tajribaga ega bo‘lishiga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Ikkinchi imkon” loyihasi orqali jazoni o‘tab bo‘lgan yoshlarni IT kasblar va xorijiy tillarga bepul o‘qitish, yosh oilalar uchun ipoteka kredit stavkasining 14 foizdan oshgan qismini davlat budjetidan qoplab berish kabi tashabbuslar ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qilishini aytib o‘tdi. Bu qarorlar yoshlarni jamiyatdan chetda qoldirmaslik, aksincha, ularni faol va foydali

hayotga qaytarish tamoyiliga asoslanadi.

Tarixiy uchrashuvda ilgari surilgan 32 imkoniyat (tashabbus) yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning qog‘ozda qoladigan emas, balki kompleks aniq rivojlanish modelini yaratadi. Yoshlarda endi mas’uliyat ham shunga yara sha katta bo‘lishi kerak. Yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish, bilim olish, tashabbus ko‘rsatish va jamiyat taraqqiyoti-ga hissa qo‘shish har bir yoshning burchiga aylanishi shart.

Bekzod BURXONOV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
rektorining yoshlar siyosati bo‘yicha
maslahatchisi.

Yaqinda boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘g‘lim bilan turk yozuvchisi Aziz Nesinning “G‘aroyib bolalar” (turk tilidan M.Hakimov tarjimasini, – Toshkent: “Yangi nashr”, 2019) kitobini mutolaa qildik. Mutaxassis va ona sifatida kuzatganlarim meni o‘ylantirdi: matnda imloviy, punktuatsion va uslubiy xatolar uchraydi. Ayrim o‘rinlarda jumlar tahrirlanmagani seziladi. Ba‘zi sintaktik qurilmalarda og‘zaki nutqqa xos soddalik saqlanib qolgan bo‘lib, bu badiiy uslubning tabiiy ko‘rinishi emas, balki muharrirlik ishloving yetishmasligi sifatida taassurot uyg‘otadi.

BEPARVOLIKMI YOKI MAS’ULIYATSIZLIK?

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun kitob shunchaki matn emas. U til me‘yorining bevosita namunasidir. Bola o‘qiganini, ayniqsa, bosma matnni, shubhasiz to‘g‘ri deb qabul qiladi. Shu bois bolalar uchun mo‘ljallangan adabiyotlarda orfografik aniqlik, punktuatsion izchillik, uslubiy silliqlik oddiy texnik talab emas, balki pedagogik zarurat sanaladi. Agar bu bosqichda bola noto‘g‘ri yozilgan shakllarni ko‘p uchratsa, ularni me‘yor sifatida qabul qilish ehtimoli ortadi. Keyinchalik bu xatolarni tuzatish ko‘proq kuch va vaqt talab etadi.

Tarjima asarlarida mas’ullarning vazifasi yanada murakkab. Muallif uslubini saqlash bilan birga, qabul qiluvchi tilning adabiy me‘yorlari ham to‘liq ta‘minlanishi kerak. Aks holda, na muallifning badiiy qudrati to‘liq namoyon bo‘ladi, na o‘quvchiga estetik zavq

yetib boradi. Nafaqat bolalar adabiyotida, balki nashr etilayotgan har qanday kitobda tarjimon, adabiy muharrir, texnik muharrir va korrektura bosqichlarining har biri muhim halqa hisoblanadi. Ushbu zanjirdagi bitta nuqson ham yakuniy natijada ko‘rinadi.

Bu fikrlar muayyan nashrni kamsitish uchun emas aksincha, bolalar kitoblariga nisbatan mas’uliyatni oshirishga chaqiriqdir. Nashriyotlar oldida iqtisodiy vazifalar turgani tabiiy. Ammo bolalar adabiyoti sohasida sifat masalasi tijoriy tezlikdan ustun turishi kerak. Agar biz matn madaniyatiga befarq bo‘lsak, ke-lajak avloddan savodxonlik va tafakkur teranligini qanday talab qilamiz?

Ozoda ANORQULOVA,
Samarqand davlat pedagogika
instituti dotsenti,
filologiya fanlari doktori.

MILLIY TARBIYAda ikkilanishga o‘rin yo‘q?

Farzand ta‘lim-tarbiyasi har bir ota-ona uchun muhim masala. Ayniqsa, maktab tanlashda ko‘pchilik ota-onalar turli o‘y-xayollarga boradi. Xususan, bolasini rus sinfiga berish yoki bermaslik borasida ikkilanishlar ham uchrab turadi. Ayrimlar: “Rus sinfiga o‘qigan bolaning tarbiyasi milliy qadriyatlarimizga mos bo‘lmaydi”, degan xavotirda bo‘ladi.

Aslida bu fikr har doim ham haqiqatga to‘g‘ri ke-lavermaydi. Jumladan, bizning maktabimizda rus sinflari uchun maxsus reja va tarbiyaviy dasturlar ishlab chiqilgan. Ularda faqat fanlarni chuqur o‘rganish emas, balki bolalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga ham alohida e‘tibor qaratilgan.

Maktabdagi mavjud 115 ta sinfda 4362 nafar bola ta‘lim-tarbiya oladi. Sinflarning 31 tasi rus sinfi bo‘lib, ularda 1200 nafardan ziyod bola o‘qiydi. Men dars beradigan sinfda o‘qiyotgan 40 nafar bolaning 2 nafari rus, qolganlari esa o‘zbek va boshqa millat vakillaridir. Ular turli oilalardan kelgan, turli muhitda tarbiya topgan. Biroq maktabda ularni birlashtirib turadigan muhim jihat – bu milliy qadriyatlarga hurmat. Dars jarayonlarida va sinfdan tashqari tadbirlarda bolalarga salomlashish madaniyati, kattalarni hurmat qilish, kiyinish odobi, milliy urf-odatlarimiz haqida doimiy ravishda tushunchalar beriladi.

Sinfimizda tez-tez ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkaziladi. Ularda bolalar o‘zbek xalqining qadimiy an‘analari, odob-axloq qoidalarini, mehnat-qo‘lqat va insonparvarlik kabi fazilatlar bilan tanishib boradi. Bu tadbirlar nafaqat bilim beradi, balki bolalar qalbida milliylikka nisbatan faxr va hurmat tuyg‘usini shakllantiradi.

Bugungi globallashuv davrida bolalarning bir nechta tilni bilishi, turli madaniyatlar bilan tanish bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Ammo bu jarayonda milliyligimizni



yo‘qotish emas, balki uni asrab-avaylab, yangi bilimlar bilan boyitish asosiy vazifa bo‘lib qoladi.

Shunday ekan, ota-onalar farzandini rus sinfiga berishda shubha bilan emas, balki maktabda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarga ham nazar tashlasa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Chunki haqiqiy tarbiya til yoki fan bilan emas, balki bola qalbiga singdiriladigan qadriyatlar bilan o‘lchanadi.

Mehrangiz BOBOYEVA,
Samarqand shahridagi 81-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

► Turmush chorahalarida

- Kechagina qozon ossa kosa ko‘tarib, yog‘ tilab chiqardi, - dedi xamir qoriyotgan Mahfuza qo‘shnisiga hasad qilib. - Do‘kon ochdi-yu, bosar-tusarini bilmay qoldi.

- Ha, savdoda gap ko‘pga o‘xshaydi, - dedi televizor ko‘rib o‘tirgan Aliqul yostiqni biqigina tortib.

Xotining nolihsida jon bor. Do‘kon ochmasdan oldin qo‘shnisi Avazning mashina tugul velosipedi ham yo‘q edi. Hovli-joyini aytmasa ham bo‘lardi. Shamol kezib huvillab yotardi. Qora qozoni so‘rg‘a qaynar, xotini Odina hali yog‘, hali tuz, hali ikkita piyoz so‘rab Aliqulnikiga chiqib turardi. Endi oshig‘i olchi, pichog‘i moy ustida. Aliqul ham bir unab ko‘rsamikan? Nima, Avazning qo‘lidan kelgan ish uning qo‘lidan kelmaydimi?

- Ha, yaxshi o‘ylabsiz, tadbirkorlikda hikmat ko‘p, - dedi mahalla oqsoqoli Aliqulning maqsadini eshitib. - Qishlog‘imiz katta, agar Avaz qo‘shningizdek do‘kon ochmoqchi bo‘lsangiz bankdan kredit olishga yordam qilamiz. Sizga o‘xshagan tadbirkorlar qancha ko‘p bo‘lsa, aholi turmushi shuncha farovon bo‘ladi.

Aliqul mahalla guzarida o‘chgan do‘kon ko‘p o‘tmay xaridorlar bilan gavjumlashdi. Mahfuzaning qo‘li-qo‘liga tegmas, eri keltirib turgan yangi meva-sabzavotlar, qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa do‘konlardagidan arzon-



roq bo‘lgani uchun bir zumdada sotilib ketardi. Ro‘zg‘origa baraka kirib, qo‘liga jaraq-jaraq pul tusha boshlagach, Mahfuzaning ko‘ngliga shay-ton qutqu sola boshladi. Ko‘rmaganining ko‘rgani qursin ekan. Avvaliga onda-sonda nasyaga u-bu narsa xarid qiluvchi muhtoj tanish-bilishlar, qo‘ni-qo‘shnilarga mahsulot sotishni to‘xtatdi. Narxini qimmatlashtirdi. Tarozidan urib qola boshladi. Oqibatda xaridorlar siyraklashdi, vaqtida sotilmagan meva-sabzavotlar turib qolib, sifati buzildi. Aliqul va xotini bozorning ham, savdoning ham yozilmagan qonuniyatlari borligi, oldi-sotdida halollik bo‘lmasa, baraka ketishini unutishdi. Savdoning kasodga uchrashiga sabab xotining ochko‘zligi ekanligini xayoliga keltirmagan Aliqulning boshi qotdi.

- Xotin, do‘kon ochib bekor qilgan

ekanmiz, - dedi Aliqul qo‘lidagi kredit to‘lov qog‘oziga qarab. - Boshida hammasi yaxshi edi, nega bunday bo‘ldi, tushuna olmayapman? Ana, Avaz qo‘shni daromadiga do‘konini kengay-tiryapti, yana ikki kishini ishga olibdi. Xaridorlari kun sayin ko‘payyapti.

- Kasodga uchrashimizga aslida ana shu qo‘shni aybdor. Xaridorlarimizni yo‘ldan urdi. Hatto mahsulotlarni buyurtmachilarning uyiga yetkazib beryapti.

- Hm, to‘g‘ri aytasan, bizni qo‘shnimiz ko‘rolmadi, xaridorlarni o‘ziga og‘dirib oldi.

Tadbirkorlikda, ayniqsa, savdoda halollik, insof, qanoat, odamlarning talab va ehtiyojlarini yaxshi bilish, o‘rganish, yelib-yugurish bosh omil ekanligiga er-xotinning fahmi yetmasdi.

Tog‘aymurod SHOMURODOV.

REKLAMA, E‘LONLAR, BILDIRISHLAR / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA‘VOLAR BO‘LSA...

Urgut tumanidagi “SIFAT CHIDAM BLOK” mas’uliyati cheklangan jamiyati (STIR: 309030067) o‘z ustav fondini 1 650 000 000 (bir milliard olti yuz ellik million) so‘mdan 4 750 000 000 (to‘rt milliard yetti yuz ellik million) so‘mgacha oshirmoqda.

Manzil: Urgut tumani “Jartepa” MFY, Usta Abdullo qishlog‘i.

“SIFAT CHIDAM BLOK” MCHJ
MA‘MURIYATI.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasida marhum Raxmatov Uzakboy Achilovichga (2025-yil 31-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 117-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Nazarova Sharopatga (2013-yil 24-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Mustafayeva Zelfira Tyufikovnaga (2025-yil 20-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 80-uy.

Past Darg‘om tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o‘g‘li notarial idorasida marhum Raxmonov Sherali Bulakovichga (2021-yil 24-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Xamidov Norbek Komil o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Past Darg‘om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko‘chasi, 48-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Ochilov Nuriddinga (2025-yil 20-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko‘chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Saidmusoyev Saidahmadga (2020-yil 23-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial

idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasida marhum Muxtarov Aminga (1990-yil 12-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasida marhum Muxtarova Xalima Aminovnaga (2021-yil 19-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Toxtayev Maxmudga (2006-yil 14-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko‘chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Mubin Ne‘matjonovich notarial idorasida marhum Karimova Sabotga (2010-yil 5-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Mubin Ne‘matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Soniy ko‘chasi, 1-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasida marhum Mansurov Ismat Mirtazovichga (2025-yil 10-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

TOPGANGA MUKOFOT!

O‘zbekiston kikkoksing assotsiatsiyasi Samarqand viloyati bo‘limining nizomi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomasi yo‘qolgan. Ushbu hujjatlarni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so‘raymiz.

Telefon: +99890-470-38-39.

BEKOR QILNADI

Samarqand shahridagi “ADVANCE TECH” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 312319060) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilindi.



Yangi O‘zbekistonning yuksalish simfoniyasi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Urgut filialida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a‘zosi, taniqli adib Abdusaid Ko‘chimovning “Yuksalish simfoniyasi” nomli kitobi taqdimoti o‘tkazildi.



Joriy yil avvalida nashr etilgan kitobdan muallifning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar samaralari aks etgan maqolalar o‘rin olgan. To‘plamni o‘qish jarayonida keyingi o‘n yillikda yurtimizda amalga oshirilgan ulkan o‘zgarishlar, hayotbaxsh evrilishlarni teran his qilasz, muallif bilan mamlakatning barcha go‘shalarida birga yurgandek, hududlarda yangilanishlarni ko‘rgandek bo‘lasiz.

Taqdimotda viloyat hokimi o‘rinbosari Husan To‘xtayev, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori, Oliy Majlis Senati a‘zosi Rustam Xolmurodov, Alisher

Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori Qozoqboy Yo‘ldoshev, “Ishonch” va “Ishonch-Doveriye” gazetalarini tahririyati bosh muharriri, Oliy Majlis Senati a‘zosi Husan Ermatov va boshqalar kitobning ana shu jihatlariga e‘tibor qaratdilar.

– “Yuksalish simfoniyasi” hurmatli Prezidentimizning xalqparvar, inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan siyosati samarasida keyingi o‘n yilda o‘zgarayotgan shahar va qishloqlarimiz, ulkan bunyodkorlik ishlari va xalqimiz ongu tafakkuri, dunyoqarashidagi o‘shish haqida hikoya qiladi, – dedi R.Xolmuro-

dov. – Bugun Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar Vatanimizning buguni va ertasiga befarq bo‘lmagan har bir insonni, ayniqsa, ijod ahlini yozishga, tafakkur qilishga da‘vat etadi. Abdusaid aka ana shu da‘vatni o‘zi hududlarda bo‘lib, qalban his etgan, bu yangilanish jarayonlarini xolis tahlil qilgan va bundan butun xalqimizni xabardor etishga intilgan. Albatta, bu maqolalar davriy nashrlarimizda, internet sahifalarida muntazam e‘lon qilib borildi. Endilikda ularning Yangi O‘zbekistonning yuksalish simfoniyasi kabi marjondek tizilib, katta bir to‘plam, kitobga aylangani faqat bugun emas, tarix uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Kitobga taniqli siyosatshunos, jamoat arbobi Qudratilla Rafiqov so‘zboshi yozgan. So‘zboshida qayd etilganidek, haqiqat va samimiyyat bilan yozilgan bu kitob faqat tarixiy yoki siyosiy solnoma emas, balki o‘z taqdirini o‘zgartirishga bel bog‘lagan xalqning ruhiy-ma‘naviy holati aks ettirilgan bebaho ko‘zgudir.

– O‘tgan yil 25-noyabr kuni davlatimiz rahbari Samarqandga tashrif buyurib, viloyat faollari bilan Urgutda uchrashadigan bo‘ldilar, – deydi “Zarafshon” va “Samarkandskiy vestnik” gazetalarini bosh muharriri Farmon Toshev. – Urgutga yangi qurilgan “Samarqand – Urgut” temir yo‘li orqali Prezidentimiz bilan birga poyezdda bordik. Yo‘l davomida davlatimiz rahbari viloyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, xalqimizning turmush darajasini yuksaltirish bilan bog‘liq reja va maqsadlarini bayon qilib bordilar, yangi tashabbuslar, o‘zgarishlar haqida gapirdilar. Albatta, tashrifdan keyin biz, jurnalistlar o‘z taassurotlarimiz haqida maqolalar yozdik, intervyular berdik. Jumladan, Abdusaid akaning “Endi olam ahlining qarashlari o‘zgacha” deb nomlangan kattagina maqolasi deyarli barcha markaziy gazetalarda chop etildi, internet nashrlarda e‘lon qilindi. Abdusaid Ko‘chimovning davlatimiz rahbari aytgan har bir fikrni shu zaminning fidoyi farzandi sifatida teran ilg‘ab, o‘z tanida his qilib, bu haqda jo‘shib yozganiga, ochig‘i, havasim keldi. Kitobdan ushbu maqola ham o‘rin olgan va uni qayta-qayta o‘qib chiqdim.

Taqdimotda kitob muallifi Abdusaid Ko‘chimov so‘zga chiqib, bugun mamlakatimizda kechayotgan olamshumul o‘zgarishlar, davlatimiz rahbarining shijoatli siyosati har bir ijodkorini bu jarayonlar haqida yozishga undashi, qalbdagi tug‘yonlarni yanada jo‘sh urdirishini qayd etdi. To‘plamni nashr etishda ko‘rsatgan amaliy yordami uchun O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi rahbariyatiga minnatdorlik bildirdi.

Keyingi paytlarda menga eng og‘ir ta’sir qilayotgan murojaatlar – voyaga yetmaganlar boshqaruvi oqibatida sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisalari haqidagilar.

Bu shunchaki avtohalokat emas.

Bu — singan taqdirlar.

Bu — izdan chiqqan hayotlar.

Bu — umrbod asoratlar.

Yaqinda bir fuqaro shunday voqeani aytib berdi: qarama-qarshi yo‘nalishdan kelayotgan skuterni voyaga yetmagan bola boshqarayotgan bo‘lgan. U boshqaruvni yo‘qotadi va to‘qnashuv sodir bo‘ladi. Bola reanimatsiyaga tushadi. Tirik qolsa ham, umrbod nogiron bo‘lib qolish ehtimoli bor.

Bir qarashda jabrlanuvchi — bola. Ammo masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Qarshi tomondagi haydovchi-chi? U ham bir umr unutilmaydigan qalb azobi bilan yashashga mahkum etildi. Uning ham hayoti bir lahzada o‘zgardi.

Fojialar ko‘pincha bir xatodan emas, bir beparvolikdan boshlanadi.

KALITNI KIM BERDI? NAZORATNI KIM QO‘LDAN CHIQARDI?

Samarqand tumanida yarim tunda sodir bo‘lgan ayanchli hodisa esa muammoning ildizi ancha chuqur ekanini ko‘rsatdi. Ota-onasining siylovi tufayli mashinali bo‘lgan o‘smir do‘stlarini mindirib, mahalla ko‘chalarida erkin harakatlangan. Bu “zavq” ikkinchi o‘smirni ham ilhomlantirgan: uydagilar uxlab qolgan paytda bobosiga tegishli mashinani



yoxud yoshlar orasida avtomobil boshqarish

MUAMMOSI

so‘roqsiz olib chiqqan. Shundan so‘ng ikki mashinada 8–9 nafar o‘smir poyga o‘ynagan.

Natija esa fojiali bo‘ldi. Yo‘lga sig‘magan tezlik qarama-qarshi chiqish bilan yakunlandi. Ro‘paradan kelayotgan avtomobil bilan to‘qnashuv sodir bo‘ldi. Besh nafar o‘smir shifoxonaga yotqizildi. Manmanlik va mas‘uliyatsizlik bir oilaning emas, bir nechta xonadonning taqdirini o‘zgartirdi. Bir o‘smirning ko‘zi qayta ochilmadi.

Shifoxona oldida haftalab tunni tun demay turgan, ko‘zlari yoshga to‘lgan ota-onalar holatini boshiga tushmagan odam to‘liq tasavvur qila olmaydi. Ammo achchiq haqiqat shundaki: yo‘l harakati qoidalarini o‘zlashtirmasdan transport boshqarish — bu sho‘xlik emas, bu xavf.

“HECH NARSA BO‘LMAYDI” DEGAN ISHONCHNI KIM SINGDIRDI?

Eng tashvishli tomoni — ayrim hollarda ota-onalar aybini o‘zidan

emas, boshqadan izlaydi. Holbuki, masalaning ilk nuqtasi ko‘pincha xonadon ostonasida boshlanadi.

Yaqinda Samarqand shahridagi maktablardan biri direktori maslahat so‘rab murojaat qildi. Uning aytishicha, yuqori sinf o‘quvchilaridan biri maktabga muntazam ravishda mashina boshqarib keladi. Tanaffus paytida sinfdoshlarini mindirib shahar aylanadi. Maktab rahbariyati bir necha bor yo‘l harakati xavfsizligi xodimlarini chaqirtirib, avtomobilni jarima maydoniga joylashtirgan. Ammo har safar jarima to‘lanib, holat yana takrorlangan.

Masala shundaki, maktab intizomni talab qiladi, ammo ayrim ota-onalar ustozlarning ogohlantirishini jiddiy qabul qilmaydi. Jamoatchilik nazorati susayganda, tarbiya instituti yolg‘iz qoladi. Maktabning ta’siri oila qo‘llab-quvvatlamaguncha to‘liq samara bermaydi. Tarbiya bir

tomonlama bo‘lmaydi — u hamkorlikni talab qiladi.

Yana bir xavfli tendensiya kuzatilmoqda: haydovchilik guvohnomasiga ega bo‘lmagan yoshlarga avtomobillarni ijaraga berish holatlari.

Ayrim “GetCar” kabi nomlar ostida faoliyat yuritayotgan tijoriy xizmatlar pul evaziga kalitni tutqazmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda “layk”

va “ko‘rishlar” ilinjida bo‘lgan ayrim o‘smirlar pul yig‘ib, ijaraga olingan mashinada ko‘chalarda bir-birini videoga olishni “moda”ga aylantirmoqda.

BU YERDA SAVOL YANA O‘SHA: NAZORAT VA MAS‘ULIYAT KIMDA?

Avtomobil — o‘yinchoq emas. U hayotni saqlash vositasi ham, uni yo‘q qilish quroli ham bo‘lishi mumkin. Voyaga yetmagan bola qo‘lidagi rul — bu faqat temir emas, bu taqdirni boshqarish xavfidir.

Ota-ona farzandiga mashina kalitini berganda, u faqat metall buyumini emas, balki ehtimoli fojiaoning eshigini ochayotganini anglashi kerak.

Reanimatsiya bo‘limida yotgan bola — faqat bir oilaning emas, jamiyatning dardi. Bir umr asorat bilan yashash ehtimoli — bu shunchaki tibbiy tashxis emas, bu ijtimoiy fojia.

Hurmatli ota-onalar, farzandinigizga mashina sovg‘a qilishdan oldin o‘zingizga bir savol bering: qachongacha kalitni bolaga berib, taqdirni tavakkalga qo‘yamiz?

Eldor MUHAMMADIYEV.

Nigoh

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

15-MART

Yuriy BURYAKOV – (1934-2015) Qirg‘izistonning O‘sh viloyatida tug‘ilgan. Arxeolog olim, akademik. “Do‘stlik” ordeni sohibi.

O‘tkir RAHMAT – 1948-yilda Toyloq tumanida tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist, Xalqaro Cho‘lpon mukofoti sohibi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi.

18-MART

Buvigul BERDIYEVA – 1954-yilda Jomboy tumanida tug‘ilgan. O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi.

19-MART

Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li (1883-1942) Samarqand shahrida tug‘ilgan. Jadid, ma‘rifatparvar shoir, jurnalist.

25-MART

Ahmad SHOYMURODOV – (1936-2020) Samarqandda tug‘ilgan. Haykaltarosh. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi.

28-MART

Saidmahsud RAZZOQOV – 1949-yilda Jomboy tumanida tug‘ilgan. Texnika fanlari doktori.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 742 nusxada chop etildi. Buyurtma 102. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E‘LONLAR: (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G‘.HASANOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda